



MISR MAMLAKATI IQTISODIYOTIDA TURIZM SOHASINING ROLI HAMDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Ravshanov To'yli

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0000-8357-6061

tiu_1990tuyli@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Misr mamlakatining turizm salohiyati, uning iqtisodiyotdagi o'рни hamda "Covid-19" pandemiyasi ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, pandeniyaning mamlakatdagi joylashtirish vositalari va unga yondosh sohalarga salbiy oqibatlari tadbiq etilgan.

Kalit so'zlar: "Covid-19" pandemiyasi, turizm, Butun jahon turizm tashkiloti, investitsiyalar, inqiroz.

РОЛЬ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ В ЭКОНОМИКЕ СТРАНЫ ЕГИПЕТ

Равшанов Тўйли

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье рассмотрено туристический потенциал Египта, его роль в экономике и влияние пандемии «Covid-19». Также применяются негативные последствия пандемии на средства размещения в стране и смежных отраслях.

Ключевые слова: пандемия «Covid-19», туризм, Всемирная туристская организация, инвестиции, кризис.

THE ROLE AND DEVELOPMENT TRENDS OF THE TOURISM INDUSTRY IN THE ECONOMY OF THE COUNTRY OF EGYPT

Ravshanov Tuyli

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article is examined the tourism potential of Egypt, its role in the economy, and the impact of the "Covid-19" pandemic. Also, the negative consequences of pandemia on the means of placement in the country and related sectors are applied.

Key words: "Covid-19" pandemic, tourism, World Tourism Organization, investments, crisis.

Kirish.

Misr mamlakati qadimiy madaniyat va arxitekturaning o'chog'i hisoblaniladi. U har doim butun dunyodan sayyohlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Ko'pchilik bu yerga ming yillik qadimiy obidalarni ko'rishga, Misrning issiq iqlimida dam olishga hamda Qizil dengizda sayohat qilish uchun tashrif buyuradi.

Butun jahon turistik tashkiloti (UNWTO) tahlilchilari tomonidan berilgan hisobotlariga ko'ra, Misr mamlakati so'ngi yillarda xorijiy turistik oqimlar bo'yicha eng katta o'sishga ega bo'lgan 10 davlatlar biri bo'lmoqda.

Misr mamlakatining turizm salohiyati yildan-yilga rivojlanib bormoqda hamda hukumat tomonidan ushbu tarmoqni iqtisodiyotning eng yatakchi sohasiga aylantirish, zaruriy infratuzilmalarni rivojlantirish uchun investitsiyalar kiritish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmogda.

Adabiyotlar sharhi.

“Covid-19” pandemiyasining Misr turizm sohasiga dastlabki ta’siri hamda uning oqibatlari, uning salbiy oqibatlari natijasida kutilayotgan iqtisodiy qiyinchiliklar, turizm va sayyohlik sanoatining zamonaviy tendensiyalari haqida o’zlarining fikr va mulohazalar bayon qilingan (Abdesalam & Elbelehi, 2020).

Misr turizmi tarmog’ining rivojlanishi iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hamda atrof-muhitga bog’ligligi hamda tashqi ta’sirlarga beruluvchanligi va bunday inqirozlar turizm hamda unga yondosh sohalarga jiddiy ta’sir ko’rsatishini ta’kidlab o’tilgan (Bakar & Rosbi, 2020).

Shu bilan birga, ushbu pandemiya butun dunyoning talab hamda taklif zanjiriga jiddiy ta’sir etganligi, ko’plab mamlakatlarda mahalliy iste’moli keskin kamayib ketganligi, barcha mahalliy va xorijiy sayyohlik dasturlari bekor qilinganligi sababli turistik tashkilotlarning daromadlari sezilarli tushgan (Yasmin va Negida, 2020).

Iqtisodchi olim Tarek Muhammadning (2020) fikricha, Misr hukumati tomonidan uzoq va qisqa muddatlarda turizm sohasida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo’llab-quvvatlash borasida tizimli ishlarni amalga oshirishi hamda Misr Markaziy banki tomonidan “Turizm tashabbusi” loyihasi doirasida uzoq va qisqa muddatlarga past foizli qarzlarni berilishi lozim hisoblaniladi.

Shu bilan birga, Misr mamlakatida so’ngi uch dekadada turizm sohasini sezilarli rivojlanganligi, tarmoqqa to’g’ridan-to’g’ri kiritilayotgan investitsiyalar miqdorining ortib borayotganligi, turizm sohasidagi daromadlarning ortishi makroiqtisodiy ko’rsatkichlarning ko’payishiga xizmat qilganligini ta’kidlagan (Rixter & Stayner, 2008).

“Covid-19” pandemiyasining Misr mamlakati iqtisodiyotiga ta’siri, uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun hukumat tomonidan amalga oshirilgan say-harakatlar, moliyaviy qiyinchiliklar hamda xalqaro moliyaviy institutlardan ushbu inqirozni bartaraf etish uchun jalb qilingan moliyaviy ko’maklar va qisqa va o’rta muddatdagi istiqbolli rejalar bayon qilingan (Haidar, 2020).

Umuman olganda, “Covid-19” singari pandemiyalar to’g’ridan-to’g’ri bitta tarmoqqa ta’sir etish bilan cheklanib qolmasdan, iqtisodiyotning barcha sohalarini qamrab olishi hamda hukumat darajasida qo’llab-quvvatlash ishlari amalga oshirilmasa, sezilarli oqibatlarga olib kelishini ko’rish mumkin bo’ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma’lumotlarni yig’ish, umumlashtirish, taqqoslash, xorijiy olimlarning Misr turizm sohasini rivojlantirish borasidagi iqtisodiy qarashlari, “Covid-19” pandemiyasi sababli vujudga kelgan muammolar va ularning yechimlari bo’yicha izlanishlari hamda sohaga doir qonuniy va me’yoriy-huquqiy hujjatlar o’rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Misr mamlakati o’zingiz tarixiy va zamonaviy turistik maskanlari bilan bir necha o’n yillardan buyon xorijiy turistlarni o’ziga jalb etib kelmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko’ra, 2022-yilda Misrga kelgan sayyohlar soni taxminan 11,7 millionni tashkil etgan bo’lsa, 2023-yilda ularning soni sakkiz millionni tashkil etgan.

“Covid-19” pandemiyasi sababli 2020-yilda ushbu mamlakatga atiga 3,62 million xorijiy sayyohlar tashrif buyurgan. Ushbu pasayishning asosiy sabablaridan biri albatta koronavirus tufayli amalga oshirilgan sayohat cheklovlari bilan bog’liq hisoblaniladi.


Umuman olganda so'ngi yigirma yil ichida Misrga tashrif buyurayotgan turistlarning soni doimiy ravishda sezilarli darajada o'zgarib turgan. Xususan, ushbu vaqt mobaynida mamlakatga kelgan turistlar oqimi ikki marotaba asosiy pasayishini boshidan kechirgan.

Birinchisi, 2015-yilda Sinay yarim orolida rus samolyoti halokatga uchrashi natijasida mazkur mamlakatga kelayotgan turistlar soni 2016-yilda sezilarli darajada kamayishiga olib kelgan.

Ikkinchisi, 2020-yilda "Covid-19" pandemiyasi bilan bog'liq bo'lgan cheklovlarning joriy qilinishi mamlakatga kelayotgan turistlar oqimining keskin kamayishiga olib kelgan.

2020-yildan buyon, Misr Afrika mamlakatlari orasida eng ko'p turist tashrif buyuratgan davlatlardan biri hisoblaniladi. Misrning ushbu qit'adagi asosiy raqobatchisi Marokash davlati bo'ladi. 2019-yilda ushbu mamlakatga 12,9 million turistlar tashrifi kuzatilgan.

2022-yilda Misr mamlakatining kirish turizmi xarajatlari 12,2 mrd. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, Marokash davlatining kirish turizmi xarajatlari 12,2 mrd. AQSh dollarini tashkil etgan.



1-rasm. 2019-2023-yillarda Afrikaning yalpi ichki mahsulotida sayohat va turizmning ulushi⁴⁰

Yuqorida keltirilib o'tilgan rasmdan ham ko'rish mumkinki, Afrika qit'asining yalpi ichki mahsulotida turizm va sayohat xizmatlarining hissasi yuqori hisoblaniladi.


Xususan, 2019-yilda pandemiya boshlanmasdan oldin ushbu qit'a YaIMdagi turizm sohasining ulushi 7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-va 2021-yillarda mos ravishda 3,8 va 4,4 foizga teng bo'lgan.

2022-va 2023-yillarda pandemiya bilan bog'liq bo'lgan cheklovlarning bekor qilinishi sababli YaIMdagi turizm sohasining ulushi mos ravishda 5,9 va 6,5 foizga o'sishga erishgan.

Umuman olganda, mazkur yillarda mobaynida turizm sohasining Misr YaIMdagi ulushi turli xil omillar ta'sirida o'zgarib borgan. Yuqorida keltirilgan rasmdan ham ko'rish mumkinki, 2008-yilda Misr YaIMda turizmning ulushi eng yuqori darajaga chiqib, 16,2 foizni tashkil etgan.

Misr iqtisodiyotining diversifivatsiya qilinishi natijasida keyingi o'n yilliklar davomida turizm va sayohat xizmatlarining YaIMdagi hissasi qisqarib borgan.

⁴⁰ <https://www.statista.com/statistics/1320400/share-of-travel-and-tourism-in-africas-gross-domestic-product/>



2-rasm. 2008-2023-yillarda Misrning yalpi ichki mahsulotida sayohat va turizmning ulushi⁴¹

Xususan, 2015-yilda Sinay yarim orolida rus samolyoti halokatga uchrashi natijasida mazkur mamlakatga kelayotgan rus va mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlaridan tashrif buyurayotgan turistlar sonining keskin kamayishi YaIMdagi turizm sohasining ulushini 2016-yilda 6,2 foizga tushirib yuborgan.

2018-2019-yillarda Misr mamlakatida turizm sohasidan olinadigan daromad 12,6 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Shu bilan birga, tarmoqning sof soydasi 2018-yilda 174,1 mlrd. misr funtiga tenglashgan hamda 2017-yilga nisbatan 124 foiz o'sishga erishgan.

2018-yilda Butun jahon sayohat va turizm kengashi tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu yilda Misrda turizm va sayohat xizmatlarini ko'rsatish tarmoqlarida 3,1 mln. kishi faoliyat olib borgan.

2018-yilda Misrga rekord darajadagi, ya'ni 9,8 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurishi kuzatilgan hamda ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 48 foizga ortgan.

Ushbu mamlakatga tashrif buyurayotgan turistlarning 59 foizi Germaniya, Ukraina va Buyuk Britaniya fuqarolari, 22 foizi Saudiya Arabistoni va Iordaniya va 7 foizi boshqa Afrika mamlakatlari fuqarolari tashkil qilgan.


Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, ushbu mamlakatga tashrif buyurayotgan xorijiy turistlarning mamlakatda qolish muddatlari va kunlari ham yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, 2017-yilda o'rtacha bitta turistning mamlakatda qolish muddati 7,9 kechani tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilga kelib ushbu ko'rsatkichni 10,8 kechaga yetgan.

Xorijiy turistlarning mamlakatda bo'lish muddatlaridagi mablag'larning sarflanish tendensiyalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, sarf-xarajatlarning qariyb yarmi mehmonxona va uning restoran uchun amalga oshirilgan to'lovlarga ketganligi, uchdan biri transport xizmatlari uchun sarflanganligi hamda qolgan xarajatlar esa asosan muzeylarga borish, tarixiy joylarga tashrif buyurish va boshqa mahsulotlarni sotib olish uchun ishlatilganligiga guvoh bo'lish mumkin.

⁴¹ <https://www.statista.com/statistics/1317338/contribution-of-travel-and-tourism-to-gdp-in-egypt/>

Butun jahon turizm tashkiloti tomonidan “Covid-19” pandemiyasi boshlanmasdan oldin qilingan iqtisodiy prognozlarda, 2019-yilda Misr turizm sanoatida katta o‘shishlar kuzatilishi taxmin qilingan.

2022-yilda Misrda sayyohlik xarajatlari 12,2 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan. O‘tgan yilga nisbatan bu 5,9 milliard AQSh dollariga ko‘pdir. Mamlakatda turizm xarajatlari o‘zgaruvchan hisoblaniladi. Bunga asosiy sabablardan biri albatta mamlakatning turli xildagi ijtimoiy va siyosiy voqealarga ta’siri yuqori ekanligi bilan baholanadi.



3-rasm. 2008-2022-yillarda Misrda turistik xarajatlarning o‘zgaruvchan tendensiyalari⁴²

Ushbu yuqoridagi rasmdagi tendensiyalardan ham ko‘rish mumkinki, mazkur mamlakatdagi turistlar sarf-xarajatlari o‘ta o‘zgaruvchan hisoblaniladi. Xarajatlar tendensiyalari turli yillar davomida kamayib gohida esa yana ortib borganligini ko‘rish mumkin.

Misol uchun, Misrning turizm sektoriga 2011-yildan buyon bir qancha omillar, jumladan arab bahorining siyosiy notinch davri salbiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda.

2016- va 2020-yillarda xarajatlar sezilarli darajada kamaygan. 2016-yildagi pasayish 2015-yilda “Sharm-al-Shayx” xalqaro aeroportidan uchib ketgan Rossiya samolyoti halokati bilan bog‘liq hisoblaniladi.

2020-yildagi pasayishning eng asosiy sababi albatta “Covid-19” pandemiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan cheklovlarning joriy etilishi ushbu yildagi turizm xarajatlarining boshqa pasayishiga asosiy sabab bo‘lgan.

Misrda “Covid-19” pandemiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan dastlabki holatlar 2019-yilning fevral oyida kuzatilgan. 2020-yilning mart oyidan boshlab Yevropa bo‘ylab ushbu pandemiyaning keng yoyilishi natijasida mazkur davlatlardan kelayotgan turistlar soni keskin kamayib ketgan.

Yevropalik turistlar tomonidan 70 va 80 foiz oldindan bron qilingan mehmonxonalar bekor qilingan. Butun dunyo bo‘ylab pandemiya bilan bog‘liq bo‘lgan cheklovlarning joriy qilishi va vaziyatning yomonlashishi natijasida Misr hukumati tomonidan 2020-yil 18-martida barcha mehmonxonalar, restoranlar va tungi klublar yopilgan.

⁴² <https://www.statista.com/statistics/971622/egypt-tourism-expenditure/>

Misr turizm va antik ishlar vazirligi tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu cheklovlarning joriy etilishi davlat budjetiga har oyda qariyb 1,0 mlrd. AQSh dollariga teng mablag'larning tushmasligiga sabab bo'lgan.

Umumiy cheklovlarning joriy qilinishi ayrim tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davom ettirishlari uchun jiddiy qiyinchiliklarni vujudga keltirdi. Natijada "Nil" daryosida sayohatlarni amalga oshiruvchi turistik tashkilotlar va unga yondosh bo'lgan umumiy ovqatlanish, restotan, kafelae va boshqa turistlarga xizmat ko'rsatadigan tadbirkorlar o'zlarining faoliyatlarini to'xtatishga sabab bo'lgan.

1-jadval

Misrning turizm sohasi ta'minot zanjiriga "Covid-19" pandemiyasi ta'siri⁴³

Tarmoq nomi	Covid-19 pandemiyasi ta'siri
Joylashtirish vositalari	<ul style="list-style-type: none"> ▪ 70 va 80 foiz bron qilingan mehmonxonalar bekor qilindi; ▪ Ko'plab hududlarda turar-joylarni ijaraga berish to'xtatildi; ▪ Bekor qilingan rezervlar uchun to'lovlar qaytarildi; ▪ Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ko'rsatmalariga binoan joylashtirish vositalarini tozalash ishlari amalga oshirildi.
Transport	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Hukumat global pandemiya sababli mamlakatga kiruvchi va undan tashqariga keladigan reyslarni bekor qildi.
Turagentlar va turoperatorlar	<ul style="list-style-type: none"> ▪ "Nil" daryosi bo'ylab o'tkaziladigan sayohatlar bekor qilindi; ▪ Umra ziyoratini yoki Payg'ambarimiz masjidiga tashrifni tashkil etuvchi sayyohlik agentliklariga buyurtmalar uchun to'lovlarni o'z mijozlariga qaytarish majburiyatini yukladi; ▪ Onlayn sayyohlik agentliklari va onlayn bronlash platformalari ham tranzaksiyalar sezilarli darajada sekinlashgani sababli inqirozga uchradi.
Umumiy ovqatlanish shoxobchalari	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Oziq-ovqat va umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi shoxobchalar faoliyati cheklandi; ▪ Restoran va kafelarning kechki 7 dan ertalabki 6 gacha bo'lgan faoliyatlari to'xtatildi.
Turizm biznesi (turistik joylar, savdo markazlari va hunarmandchilik ustaxonalari)	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Barcha turistik hududlarni yopdi; ▪ Muzey va madaniy tadbir tashkilotlari katta moliyaviy qiyinchilikka yuzma-yuz bo'lishdi; ▪ Yirik film festivallari bekor qilindi.

Turizm sektori umuman olganda turli xil tashqi va ichki omillarga beriladigan eng zaif tarmoqlardan biri hisoblaniladi. Bunda mamlakatlar o'z chegaralarini yopadi va xalqaro tashrif buyuruvchilarning sayohatlarini taqiqlaydi, natijada reyslar ommaviy ravishda bekor qilinadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, turizm Misr malakatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini yanada oshirish uchun turizm salohiyatidan foydalanish hamda uni musulmon mamlakatlarida yana kengroq targ'ibot qilish talab etiladi. Yuqoridan kelib chiqqan holda quyidagi mamlakatimizda ham ushbu taklif etiladi:

⁴³ [file:///C:/Users/tuyli.ravshanov/Downloads/20201224122949_OSCM_2020_48_FULL_PAPER%20\(2\).pdf](file:///C:/Users/tuyli.ravshanov/Downloads/20201224122949_OSCM_2020_48_FULL_PAPER%20(2).pdf)

1. Turizm sohasini iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilash hamda uning rivojlanishi va barqaror amal qilishi uchun yanada qulay sharoitlar yaratish;
2. O'zbekistonning turizm uchun jozibador mamlakat sifatida qiyofasini shakllantirish hamda milliy turmahsulotlarni Misr mamlakatida ham targ'ib qilish ishlarini yanada kuchliroq e'tibor qaratish;
3. "Covid-19" pandemiyasi sharoitida turistik tashkilotlar va unga yondosh sohalarda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq hisoblaniladi.

Adabiyotlar / Лумепамыпа/ Reference:

Ala Abdesalam hamda Chehab Elbelehi (2020) "The early impact of covid-19 on tourism industry" 1-2 p.

Bakar, N.A. and Rosbi, S. (2020) 'Effect of Coronavirus disease (COVID-19) to tourism industry', International Journal of Advanced Engineering Research and Science (IJAERS), (April). doi: 10.22161/ijaers.74.23.

Jamal Ibrahim Haidar (2020) How did Egypt soften the impact of Covid-19. pp.1-11.

Negida, A. (2020) 'Estimation of COVID-19 burden in Egypt', The Lancet Infectious Diseases. Elsevier Ltd, 2019(20), p. 30329.

Tarek Muhammadning (2020) "COVID-19: Egyptian Government Financial Assistance Measures". pp. 3-4

Thomas Richter and Christian Steiner (2008) "Politics, Economics and Tourism Development in Egypt" pp. 939-959.